

**To'g'ri soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uning ahamiyati**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*mustaqil tadqiqotchi*

***PhD Xo'jakulov Ramshid Yunusovich***

***Annotatsiya.*** Mazkur maqolada respublikamizda yangi taraqqiyot strategiyasida soliq-byudjet tizimini samaradorligini ta'minlash hisoblanadi. Soliq salohiyatini hisoblash formulalari keltirilgan shuningdek soliq-siyosatini takomillashtirish, byudjetda xarajatlar ehtiyojlarini va tenglashtirish dasturlarining asosiy jihatlarini aniqlashda mavjud innovatsion usullar va uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishni takomillashtirish, iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlashning keng ko'lamlari usullarini qo'llash takliflar berilgan.

***Kalit so'zlar:*** soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, mahaliy byudjet, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, reprezentativ soliq stavkasi, o'rtacha stavka soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

***Kirish.*** Davlat byudjeti tuzumidan va taraqqiyot darajasidan qat'iy nazar, davlat funksiyalarini bajarish uchun byudjet daromadlarining lozim darajada shakllantirish har bir davlat uchun zarur hisoblanadi. Bu vazifa soliq siyosatini to'g'ri yuritishda hamda byudjet defitsitini qoplash usullarini tanlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi taraqqiyotning hozirgi bosqichida respublikamizda mahalliy byudjetlarning rolini oshirish, tashabbusli byudjetni joriy etish bilan bog'liq masalalarini hal etish uchun ularning daromad manbalarini to'g'ri prognoz qilish orqali ularning daromadlarini kuchaytirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

To'g'ri (bevosita) soliqlar soliq tizimiga kiruvchi muhim soliq turlaridan biri hisoblanadi. Agar, soliqlarning o'zining ijtimoiy va iqtisodiy ildiziga

qaraydigan bo'lsak, ular davlatning muhim moliyaviy instrumenti sifatida yuzaga kelgan. Ya'ni, davlat bunday moliyaviy instrumentsiz o'zining faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatini yo'qotadi. Sababi davlat tizimiga kiruvchi, jamiyatga xizmat qiluvchi va iqtisodiy hamda sotsial-ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi usqurtma tizimlar (davlat organlari) ham jamiyatning bir maromda mavjud bo'lishi va uning rivojlanib borishi uchun muhim sanaladiki, ularning faoliyatini moliyalashtirish esa, iqtisodiy soha vakillari zimmasiga tushadi. Bu esa, soliq kabi moliyaviy instrumentlarni qo'llash orqali ta'minlanadi. Shu jihatdan olganda, soliqlar iqtisodiy sohadagi yaratilgan mahsulotlarning qiymat shaklidagi bir bo'lagini jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi davlat tarkibidagi tuzilmalarni moliyalashtirish uchun xizmat qiladigan muhim moliyaviy instrumentlardir deb baholash ham o'z iqtisodiy mazmuniga ega.

Davlat jamiyat manfaatlarini ko'zlab turli xil soliqlarni joriy etar ekan, ularning amal qilishining butun boshli tizimni shakllantirishini taqozo etadi. Bu tizim esa, avval qanaqa soliqlar mavjud bo'lishi kerakligi, nimalarga soliq solinishi, soliqlarni kimlar to'lashi va qanday tartibdaligi, joriy qilingan soliqlarni qanday undirilishi kabi ko'plab iqtisodiy masalalarni hal qilishni taqozo etadi. Agar, soliqlarning paydo bo'lishi va ularning turli xil ko'rinishlariga e'tibor beradigan bo'lsak, boshqa soliqlar singari to'g'ri soliqlar deb ataluvchi soliqlarning ham iqtisodiy-ijtimoiy mazmunini anglash imkoni bo'ladi. Chunki, davlat o'zining iqtisodiy funksiyasi-jamiyatni iqtisodiy tartiblash asosida turli sohalar o'rtasida muvozanatni o'rnatish borasida jamiyatda yaratilgan mahsulotlarni qayta taqsimlashda soliqlar, jumladan to'g'ri soliqlardan foydalanadi. Davlatning pul fondlariga zaruriyat boshqa soliqlar singari to'g'ri soliqlarning yuzaga kelishining shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari agar davlatning dastlabki paydo bo'lishidagi davlatning asosiy manbasi (o'lponlar)ni e'tiborga olmaganida, soliqlar pul fondlarining asosiy moliyaviy manbasi bo'lib kelmoqdaki, ularda to'g'ri soliqlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar, boshqa soliqlar singari to'g'ri soliqlarning evlyusion yuzaga kelishi va rivojlanishiga e'tibor beradigan bo'lsak, formatsiyalashuvning feodalizm

shaklini paydo bo'lishi va uning rivojlanib borishi yer egaligining feodal shakliga o'tishi, moliya, sud, boshqaruv masalalari ham yer egalariga tegishli bo'lib qoldi, umumdavlat xarajatlari ancha qisqardi, davlatning asosiy daromad manbalari uning mulkidan, regaliyalar (mulkdan foydalanish va boshqa huquqlarni berganlik uchun yig'imlar) ham bojlardan tashkil topib bordi. Feodal tarqoqlikning kuchayib borishi esa davlatlarning uyushmalarini va unga muvofiq soliqlarning ham takomillashib borishiga asos bo'ldi. Bu holat, ayniqsa, yer va savdo munosabatlari, keyinchalik esa manufaktura rivojlangan Yevropa davlatlarida, jumladan, Fransiya, Angliya va Germaniyada ancha shakllanib bordi. Fransiyada XV asrlarga kelib qirollik va feodal katta yer egalarining o'rtasidagi qattiq ziddiyatlar oqibatida Fransiyada yirik markazlashgan davlat va uning o'ziga xos moliyaviy tizimi shakllandi. Bu vaqtlarda Fransiyada shaxslardan olinadigan to'g'ri soliq («*taille personelle*») va mol-mulkdan olinadigan («*taille reille*») to'lovlar asosiy soliq sifatida yuzaga keldi. XVII asrlarda soliqlar yanada keng rivoj oldi va uning soni ham ko'payib bordi.

To'g'ri va egri soliqlar mamlakatning turli joylarida turlicha undirila boshlandi. Soliqlarning noto'g'ri taqsimlanishi, aristokratlarning soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashi, aholining zimmasiga soliq og'irligini oshib borishi, soliqlarni davlatdan undirish huquqini qo'lga kiritgan soliq undiruvchilarning soliq undirishdagi adolatsizligi, bir xil joylardan egri soliqlar undirilsa boshqa joylardan undirilmasligi Fransiyada yirik to'ntarilishga sabab bo'ldi. Revolyusion hukumat esa avvalgi barcha soliqlarni bekor qilib, keyinchalik soliqlar davlat faoliyatining asosiy manbai ekanligidan kelib chiqib turli xil (asosan yer solig'i, daromad solig'i, mol-mulkdan soliq, jon boshiga soliq, yig'imlar va sh.k.) soliqlarni yanada ko'paytirishga majbur bo'ldi.

Fikrimizcha, ushbu xususiyatlari sifatida quyidagilarni: fiskal (to'g'ri soliqlar pul fondlarining moliyaviy manbalaridan biri hisoblanishi), iqtisodiyotni tartiblash (to'g'ri soliqlar orqali davlat iqtisodiyotni tartiblashda muhim moliyaviy dastak sifatida foydalanishi), soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish (to'g'ri soliqlar orqali davlat soliq siyosatida ularning faoliyatini rag'batlantirish

imkoniyatining mavjudligi), daromadlarning diversifikatsiyalashuvni aniqlash (to'g'ri soliqlar orqali davlat soliq siyosatida ularning faoliyatini rag'batlantirish imkoniyatining mavjudligi), soliqlarning funksiyalarini aks ettirish (to'g'ri soliqlar soliqlarning fiskal, tartiblovchilik, rag'batlantirish, muvofiqlashtirish kabi funksiyalarni o'zida aks ettirishi) va shu kabi xususiyatlarga egaki, bu xususiyatlar to'g'ri soliqlar jumlasiga kiruvchi soliqlarning ichki xususiyatlarini tavsiflash bilan bir qatorda, bu soliqlar bozor munosabatlari sharoitida ularning iqtisodiy tizimdagi, qolaversa soliq tizimidagi roli va ahamiyatini ko'rsatib beradi. To'g'ri soliqlarning ichki xususiyatlarini ochib beradigan yana bir jarayon borki, u ham bo'lsa, ushbu soliqlarning soliqqa tortish jarayonida soliq ob'ektlarini qamrab olinishini darajasi va holatidir. Shu boisdan quyidagi keltirilayotgan rasm orqali buni tavsiflab beriladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning bunday guruhlanishi ham iqtisodiy ham huquqiy asosga ega bo'lib, soliqlarning bu tartibda guruhlanishi, avvalo, davlat byudjetining tuzilishidan kelib chiqadi. Unitar davlatlarda byudjet tuzilishi, odatda, ikki pog'onadan (respublika va mahalliy byudjetlar) iborat bo'lib, unga muvofiq soliqlar ham byudjetga biriktirilishi jihatidan respublika va mahalliy miqyosida guruhlanadi. Masalan, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvesiya kabi davlatlarda byudjet tuzilishiga mos holda soliqlar ham ikki pog'ona asosida undiriladi. Federativ tuzilmaga ega bo'lgan davlatlar, masalan, Rossiya, AQSh, Germaniya, Kanada va shu kabi davlatlarda byudjet tuzilishi federalizmga asoslangan bo'lib, unga muvofiq soliqlar ham federal, hududiy (federatsiya sub'ektlari, shtatlar) va mahalliy (munitsipal) soliqlarga bo'linadi. Davlat byudjetiga kiruvchi byudjetlardan xarajatlarni amalga oshirish tartibi va mexanizmlari byudjetlarga biriktirilgan soliqlarning tegishli byudjetlar xarajatlarini qoplash imkoniyatlari farqlanishini keltirib chiqaradi. Davlat bunda o'zining moliyaviy (byudjet) siyosati orqali soliqlar byudjetlarning moliyaviy resurslarini shakllantirishdagi farqli imkoniyatlarini tartibga solishi soliqlarning biriktirilgan va tartibga soluvchi guruhlariga bo'linishiga asos bo'ladi. Biriktirilgan soliqlar mahalliy byudjetlarga qonun asosida biriktirilgan hamda o'zlarining

(mahalliy hokimiyatlarning) moliyaviy huquqlari asosida joriy qilgan soliqlari va yig'im (to'lov)laridan iborat bo'ladi.

Buning mohiyati shundan iboratki, bozor qoidalarining amal qilishi jarayonida to'g'ri soliqlar ob'ekti bo'lgan predmetlarni taqsimlash yoki ularni oldi-sotdi qilish jarayonida to'g'ri soliq sifatida yuzaga keladigan iqtisodiy jarayon egri soliqlar sifatida to'lanadiki, bu soliqlarning yuklanishi orqali amalga oshadi. Bu holatlarning yuzaga kelishi esa ko'pincha soliq to'lovchining moliyaviy, hisob, marketing strategiyasi va soliq ob'ektlarining o'zgarib turish jarayonlariga ham bog'liq bo'ladi.

### **Xulosa va takliflar:**

Ilmiy talqinlar shuni anglatadiki, boshqa soliqlar singari to'g'ri soliqlarning tarixiy-ijtimoiy va iqtisodiy ildizi davlatning yuzaga kelishi va uning iqtisodiy funksiyasi bilan chambarchas bog'liq. Chunki, davlat o'zining iqtisodiy funksiyasi-jamiyatni iqtisodiy tartiblash asosida turli sohalar o'rtasida muvozanatni o'rnatish borasida jamiyatda yaratilgan mahsulotlarni qayta taqsimlashda soliqlar, jumladan to'g'ri soliqlardan foydalanadi. Davlatning pul fondlariga zaruriyat boshqa soliqlar singari to'g'ri soliqlarning yuzaga kelishining shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi.

Soliqlarning turli xil xususiyati va mohiyatiga ko'ra turlanishi birinchidan, soliqlarning mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qilsa, ikkinchidan, soliqlarning guruhlanishi davlatning iqtisodiyotni tartiblashda, soliq to'lovchilarning faoliyatini muvofiqlashtirishda soliqlarning rolini va ulardan qanday foydalanish mumkinligini ko'rsatib beradi, uchinchidan, soliqlarning guruhlanishi byudjet tizimi byudjetlarining daromad manbalarini aniqlashda, ular o'rtasida munosabatlarni tartiblashda, solikli moliyaviy resurslarini to'g'ri taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqishga imkoniyat tug'diradi, to'rtinchidan, soliqlarning fiskal ahamiyatini aniqlash orqali davlat byudjetiga soliq tushumlarini muayyan darajada prognoz qilish ob'ektivligini ta'minlashga xizmat qiladi, beshinchidan esa, milliy iqtisodiyotdagi predmet, jarayon va munosabatlarni soliq ob'ekti sifatida belgilashni to'g'ri amalga oshirishga imkoniyat tug'diradi, demakki, soliqlarni guruhlash bir tomondan nazariy asosiga ega bo'lsa, boshqa

tomondan soliqqa tortish jarayonini to'g'ri tashkil qilishda amaliy ahamiyatga egadir.

**Manba va foydalanilshgan adabiyotlar ro'yxati:**

Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).

Xo'jaqulov Ramshid Yunusovichning "Byudjet daromadlarining shakllantirishda to'g'ri soliqlarning ahamiyatini oshirish" (phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023.